



## INTERNET TILI VA UNING ADABIY TILGA TA'SIRI

**Rustamova Durdona Ibrohim qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti,  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya** . Mazkur maqolada internet tilining shakllanishi, uning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari hamda zamonaviy o'zbek adabiy tiliga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn muloqot jarayonida yuzaga kelayotgan til hodisalari adabiy til me'yorlari nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, internet tilidan oqilona foydalanish va adabiy tilni asrash masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** internet tili, adabiy til, til me'yorlari, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, media tilshunosligi, ijtimoiy tarmoqlar, yozma nutq, zamonaviy o'zbek tili.

### **Kirish**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji XXI asr jamiyatida yangi muloqot shakllarini yuzaga keltirdi. Internet orqali amalga oshiriladigan tezkor va ommaviy muloqot natijasida tilning yangi ko'rinishi — internet tili shakllandi. Ushbu til shakli kundalik yozishmalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, bloglar va forumlarda faol qo'llanilmoqda. Internet tili o'zbek adabiy tiliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda uni boyitayotgan bo'lsa, ayrim hollarda esa adabiy me'yorlarning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois internet tilining adabiy tilga ta'sirini har ikki jihatdan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

### **Internet tilining lingvistik tahlili**

Internet tilining o'ziga xos xususiyatlari tezkorlik, soddalik va qisqalik bilan ajralib turadi. Mazkur masalani o'rganishda sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kommunikativ lingvistik va media tilshunosligi yo'nalishlari asos bo'lib xizmat qiladi. Internet tili muloqot jarayonida quyidagi darajalarda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi:

- **Leksik sath:** So'zlarning qisqartirilishi (bn — bilan, kk — kerak) va ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar (like, post, story, nickname, follow, reels, bio, actually, comment) faollashmoqda.
- **Semantik sath:** Ayrim so'zlarning ma'no ko'lami o'zgarmoqda, masalan, "yomon" so'zi o'rniga "dahshat" so'zining ijobiy ma'noda qo'llanilishi.
- **Pragmatik sath:** Emoji va belgilar orqali ma'no ifodalash, imlo va grammatik qoidalarga to'liq amal qilmaslik holatlari keng uchraydi.

Olimlarning qarashlariga ko'ra, D. Crystal internet tilini nafaqat jargon, balki "tilning yangi yashash muhiti" sifatida baholaydi. S. Herring esa uni kompyuter orqali

amalg oshiriladigan muloqotda yuzaga kelgan, o'ziga xos grammatik va pragmatik xususiyatlarga ega nutq shakli deb ta'riflaydi.

### **Salbiy oqibatlar va savodxonlik muammosi**

Ko'plab tilshunos olimlar internet muhitida imlo va grammatik qoidalarga nisbatan befarqlikning kuchayib borishini milliy savodxonlikka tahdid soluvchi jiddiy holat sifatida baholaydilar. Ushbu muammoning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **Imlo me'yorlarining degradatsiyasi:** Tezkor yozish natijasida so'zlarning asl yozilishi unutilmoqda. Harf tushirib qoldirish yoshlar orasida odatiy holga aylanib, bu rasmiy hujjatlarda ham xatolarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.
- **Nutqning qashshoqlashuvi:** Fikrni so'z bilan emas, balki emoji va grafik belgilar bilan ifodalash insonning so'z boyligini cheklab qo'yadi. Bu holat adabiy tildagi boy sinonimik qatordan foydalanish ko'nikmasini yo'qotishiga olib keladi.
- **Uslubiy interferensiya:** N. Baronning ta'kidlashicha, virtual muloqot uslubiga o'rganib qolgan shaxs rasmiy va akademik nutqda ham internet jargonlarini ishlatib yuboradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, internet tili zamonaviy muloqotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq, uning adabiy til me'yorlariga ko'rsatayotgan ta'siri mutaxassislar tomonidan nazorat qilinishi va tahlil etilishi zarur. Savodxonlik darajasining tushib ketishi o'sib kelayotgan yosh avlodning ona tilining grammatik asoslarini unutishiga sabab bo'lishi haqida jiddiy ogohlantirishlar mavjud.

Internet tilining salbiy ta'sirini kamaytirish va til madaniyatini yuksaltirish uchun quyidagi yechimlarni amalga oshirish zarur:

1. **Sifatli kontent yaratish:** Ijtimoiy tarmoqlarda adabiy tilga asoslangan kontentlar yaratish va to'g'ri yozuv uslubini namoyish qilish.
2. **Rag'batlantirish:** Onlayn forum va guruhlarda til me'yorlariga amal qilinishini jamoatchilik nazorati orqali rag'batlantirish.
3. **Ma'rifiy ishlar:** Tilshunoslar va o'qituvchilar tomonidan vebinar hamda master-klasslar orqali yoshlarga internet muloqoti madaniyatini o'rgatish.
4. **Media savodxonlik:** Maktab va oliy ta'lim dasturlariga raqamli muhitda to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantiruvchi darslarni kiritish orqali tilning buzilishini oldini olish mumkin.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2. Herring, S. Computer-Mediated Discourse. – 2004.
3. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2006.
4. Baron, N. Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press, 2008.

